

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHI SHAXSIGA  
YO'NALTIRILGAN YONDASHUV

**Xudoyberdiyeva Laylo Fozil qizi**  
*JDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi*  
*yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi shaxsigaga yo'naltirilgan yondashuvlar haqida yozilgan.*

**Kalit so'zlar:** *intelektual qobiliyat, ta'lim, tarbiya, pedagog, qiziqish, ta'lim jarayoni, texnologik yondashuv, bola shaxsigaga yo'naltirilgan ta'lim.*

**Аннотация:** *В данной статье написано о подходах, ориентированных на личность учащегося в организациях дошкольного образования.*

**Ключевые слова:** *интеллектуальные способности, образование, воспитание, педагог, интерес, образовательный процесс, технологический подход, детско-ориентированное обучение.*

**Annotation:** *This article is written about approaches focused on the personality of the student in organizations of preschool education.*

**Key words:** *intellectual abilities, education, upbringing, teacher, interest, educational process, technological approach, child-oriented education.*

Maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual qobiliyatlari shakllanayotgan davrda atrof olam haqidagi ma'lumotlarning 70%ni ular ekan. Demak bu davrda bola shaxsigaga yo'naltirilgan bu yondoshuv aniq optimal maqsadli individual bo'lishi lozim. Pedagog bola shaxsi rivojlanishi yoshga doir xususiyatlarini hisobga olgan holda unda fikrlash, tasavvur, diqqat kabi omillarni chuqur o'rgangan bo'lishi hamda shu asnoda inklyuziv ta'limni qo'llashi maqsadga muvofiqdir. Bola ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lsa, tarbiyachi pedagog esa bolaning rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilashi va samaradorlikka erishish yo'llarini izlab topishi zarur. Aynan 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda sensor atamalar – shakl rang o'lcham kabilar to'la o'zlashtirilishi uchun uning ta'limiga e'tiborli bo'lib, u yo'l qo'yadigan xatoliklarni to'g'rilab do'stona munosabat o'rnatilishi muhimdir.

Bolaga yo'naltirilgan yondashuv, uning yosh xususiyatlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini hamda oilaviy muhit qadriyatlarini va madaniyatlarini eng muhimi tajribasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Pedagogik jarayonda ziyraklik mustaqillik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni tarbiyalashi lozim.

Ta'lim jarayonida texnologik yondashuv tushunchasi bugungi kunda yangi mazmun kasb etmoqda. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsigaga yo'naltirilgan ta'lim asosida tarbiyalash quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim jarayonida muhit o'zaro munosabatlar uslubi tarbiyalanuvchilarga barcha insoniy xislatlarni o'zlashtirish o'zini inson sifatida anglash xurmat qilish tuyg'usini tarbiyalashga yordam berishi kerak.

Shunga ko'ra pedagogning asosiy vazifasi bolaning potensialini aniqlash hamda rivojlanishiga yordam ko'rsatishi lozim.

Ta'lim jarayonini tashkil etish asosi sifatida shaxsiy yondashuv bola shaxsining guruhdoshlari oldida tan olinishi hamda o'zaro gumanistik munosabatlarning hosil qilinishini asosiy deb bilamiz. Chunki jamoada bola o'zini yaxshi his qilsa do'stlari bilan munosabati mehribonlik o'zaro yordam prinsiplariga asoslangan bo'lsa, bola o'zini shaxs sifatida anglaydi va o'z imkoniyatlarini amalga oshirish yo'llarini mustahkamlaydi. Bunda pedagogning shaxsiy yondoshuvi, bolaga o'zini shaxs sifatida anglashda hamda imkoniyatlarni aniqlashga ko'mak berishni maqsad qilishi muhimdir. 6-7 yoshli bolalar uchun tashkil etilgan majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhida ta'lim olayotgan bolalarni o'qitishda pedagog bir nechta omillarni hisobga olishi va o'z vazifasini yodda tutishi lozim.

Maktabgacha ta'limning o'ziga xosligi, bola shaxsini qadr-qimmatini to'g'ri tushunishi va uning rivojlanishiga yordam ko'rsatishi muhimdir. Pedagog avvalo bola qanday bo'lsa shunday qabul qilishi uning oldinroq katta bo'lib qolmasligini e'tiborga olishi zarur. Fiziologik rivojlangan, ammo psixik jarayonlar ongli ravishda rivojlanayotgan bu davrda pedagog barcha bolaga birday yondoshishi samara bermasligi mumkin. Chunki har bir bolaning qobiliyati va ehtiyoji hisobga olinmasa natija kutilgandek bo'lmasligi tabiiy. Pedagog bolaning bo'ysundirilishi emas, rivojlanishining to'laqonli namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratishni maqsad qilishi lozim. Bola tarbiyasi tug'ilganidan boshlanishi hammamizga ma'lum. Har bir bola noyob uning har tomonlama taraqqiyoti uchun shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Ularning har daqiqada nimanidir o'rganishini esdan chiqarmagan holda unumli va mazmunli eng muhimi sifatli ta'limiy faoliyatni olib borish orqali undagi iqtidorni qobiliyatga, qobiliyatni esa intellektga aylantirish lozim.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim mohiyatiga ular nimani bilishlari yoki uddalay olishlaridagina emas yangicha tushunishlarni hosil qilishdagi o'rnini ya'ni inklyuziv ta'lim yotadi. Bu yondoshuvga pedagoglar e'tiborga olishi zarur bo'lgan omillar mavjud. Har bir faoliyat va rejalashtirishda qiziqarli, havfsiz yetarlicha murakkab bo'lishi hamda bolaning yaxshi rivojlanishiga turtki bo'lishi bilan birgalikda yoshiga mos bo'lishi kerak. Pedagog guruhidagi bolalarning yashaydigan ijtimoiy muhitni e'tiborga olgan holda har bir bolaning individual xususiyatlari ya'ni kuchli kuchsiz tomonlari ehtiyojlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi va inobatga olishi zarur.

Rivojlantiruvchi yondashuv bolaning tabiiy ravishda ulg'ayishining muhimligini baholash va tahlil etishdir. Rivojlantiruvchi yondashuv asosida o'yin faoliyatida tashqi olam: atrof muhit haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirib faol ta'lim oladi. Har turdagi faoliyatlar bilan to'ldirilgan jarayonlar bolalar uchun ya'ni o'z-o'zlarini yuzaga chiqarishlarini ta'minlabgina qolmasdan mazmunli mustaqil faoliyati uchun o'ta muhim hisoblanadi. Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda bolaning umumiy muhim kompetensiyalarini hisobga olish muhimdir. Faollikning barcha turlarida bolaning hissiy tajribalarning boyitilishi hamda nutqining

rivojlanishini ko'zda tutish lozim. Bola shaxsiga yondashuv orqali bolaning shaxsiy xarakteristikasini aniqlash mumkin. Bolaning layoqatliligi, qiziquvchanligi, tashabbuskorligi, mas'uliyatliligi hamda kommunikativligini hisobga olish pedagogning reja asosida yondashuvni amalga oshirishga asos bo'ladi. Bolani birdaniga diqqatli mustaqil qiziquvchan qilish qiyin bo'lganidek uni oz fursat ichida qandaydir vazifani yechishga kelishishga o'rgatish ham mushkuldir.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim tafakkurini rivojlanishining ma'lum bir darajasini shakllantirishi lozim. Maktabgacha yoshdagi har qanday olti yoshli bolaga inklyuziv ta'lim yondoshuvida moslashuvchan va har bir bolani so'zsiz qabul qilish qo'llash zarurati mavjudligini anglatmoqda. Maxsus ehtiyojli bolalarga qo'llaniladigan –inklyuziv ta'lim|| atamasini har bir olti yoshli bolaga nisbatan hech istisnosiz ta'limiy mafkura deb baholash mubolag'a bo'lmas edi. Ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olish bilan birga bolalarni tarbiyalash va o'qitilishini teng ravishda ommabopligini ta'minlaydigan jarayonni inklyuziv ta'lim deb ataymiz. Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv haqida fikr yuritilganda –yondashuv|| so'ziga to'xtaladigan bo'lsak bu pedagogik faoliyatning o'zaro bog'langan g'oyalari, tushunchalari va usullarining ma'lum bir xususiyatli jamlanmasidan foydalanishga undovchi pedagogik faoliyatning metodolik yo'naltirilishidir.

Shaxsiy yo'naltirilgan yondashuvda esa ta'limiy faoliyat markaziga asosiy subyekt sifatida bola ya'ni ta'lim oluvchi qo'yiladigan yondoshuvdir. Birlamchi tamoyillaridan biri esa bolaning ehtiyojlari, motivlari tajribasi maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asos albatta individual yondashuvni yoki har bir bolaning zarurat va ehtiyojlarini ye'tiborga olish muhim hisoblanadi. Bolalar rivojlanishidagi farqlarni inobatga olgan holda o'qilish muhitida har bir bola shakllanishiga xizmat qilish muhimligini anglagan holda yondashuvni amalga oshirish har bir pedagogning vazifasidir. Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvning usullaridan biri ularni kuzatish hisoblanadi.

Kuzatish – bu bolaning ishlayotgan yoki o'ynayotgan paytida uning faoliyatiga aralashmagan holda uni kuzatish jarayonidir. Pedagog kuzatish orqali harakatlarning turi bilim olish bo'yicha qiziqishlari ko'nikmalar darajasi va rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarini aniqlaydi. Kuzatishdan maqsad turlicha bo'lishi mumkin. Faoliyatlarni rejalashtirish va rivojlantiruvchi muhitga o'zgartirishlar kiritish uchun hamda e'tibor talab qiladigan holatlarni aniqlash bilan birgalikda bolalarning ehtiyojlari, ko'nikmalarini aniqlash uchun kuzatish o'tkaziladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ehtiyoj va qiziqishlari jadal ravishda oshib boradi. Bu eng avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bolalarning psixik jihatdan o'sishiga qiziqishning roli ham kattadir. Shuning uchun kuzatishda ahamiyatli narsalarni yoddan chiqarmagan holda yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mashhur rus pedagoglardan biri Legfastning fikricha, insonning maktabgacha yoshdagi davri shunday davrki, bu davrda bola axloqiy xarakterning asoslari yuzaga

keladi. Bola tabiatining asosiy qonunlaridan biri: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda lekin u faoliyat natijasidan emas, faoliyatning bir xilligidan charchaydi. Pedagog shu tomonlarni hisobga olgan holda jarayonlarni uyushtirish qobiliyatlarining o'sib borishiga bevosita yordam berishi lozim. Chunki bu davr elementar, madaniy, gigiena, bilish, nutq o'stirish va ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davridir. Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv, bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni tarkib topishiga asos bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoev Sh.M. —Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr.

2. Bola shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv .Metodik qo'llanma Toshkent 2020

3. —Shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish qo'llanmasi .2020 y

#### **Internet saytlar**

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

3. [www.google.uz](http://www.google.uz)